

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 9 СОН

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 7, НОМЕР 9

JOURNAL OF LAW RESEARCH

VOLUME 7, ISSUE 9



ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF LAW RESEARCH

№9 (2022) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9130-2022-9>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Abdurasulova Qumriniso Raimqulovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Fayziev Shoxrud Farmonovich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

12.00.01 - ДАВЛАТ ВА ҲУҚУҚ НАЗАРИЯСИ ВА ТАРИХИ. ҲУҚУҚИЙ ТАЪЛИМОТЛАР ТАРИХИ / ТЕОРИЯ ПРАВА И ГОСУДАРСТВА, ИСТОРИЯ ПРАВОВЫХ УЧЕНИЙ / THEORY OF LAW AND STATE, HISTORY OF LEGAL DOCTRINES

Boboyev Halimboy Boboyevich

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Ahmedshaeva Mavlyuda Axatovna

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Adilxodjayeva Surayyo Maxkamovna

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Sattorov Abdug'affor

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Artur Gambaryan

yuridik fanlar doktori, professor (Armaniston)

Yosuke Shamoto

yuridik fanlar doktori, professor (Yaponiya)

12.00.02 - КОНСТИТУЦИОННЫЙ ҲУҚУҚ, МАЪМУРИЙ ҲУҚУҚ, МОЛИЯ ВА БОЖЖОНА ҲУҚУҚИ / КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО; АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО; ФИНАНСОВОЕ ПРАВО / CONSTITUTIONAL LAW; ADMINISTRATIVE LAW; FINANCIAL RIGHT

Malikova Gulchexra

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Xusanov Ozod Tillabayevich

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Selimanova Svetlana Mixaylovna

yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)

Xvan Leonid Borisovich

yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Peshkova Xristina Vyacheslavovna

yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)

Sung Un Lee

yuridik fanlar doktori, professor (Janubiy Koreya)

12.00.03 - ФУҚАРОЛИК ҲУҚУҚИ. ТАДБИРКОРЛИК ҲУҚУҚИ. ОИЛА ҲУҚУҚИ. ХАЛҚАРО ХУСУСИЙ ҲУҚУҚ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО; ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО; СЕМЕЙНОЕ ПРАВО; МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО / CIVIL LAW; BUSINESS LAW; FAMILY LAW; PRIVATE INTERNATIONAL LAW

Oqyulov Omonboy

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Ro'zinazarov Shuhrat Nuraliyevich

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Ruziyev Rustam Jabborovich

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Borotov Mirodiljon Xomudjonovich

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Toshev Boboqul Norqobilovich

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Shomuxamedova Zamira Shoislamovna

yuridik fanlar doktori, (O'zbekiston)

Ahmad Issa Altweissi

yuridik fanlar doktori, professor (Iordaniya)

12.00.04 - ФУҚАРОЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ХЎЖАЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ҲАҚАМЛИК ЖАРАЁНИ ВА МЕДИАЦИЯ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; ХОЗЯЙСТВЕННОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; АРБИТРАЖНЫЙ ПРОЦЕСС И МЕДИАЦИЯ / CIVIL PROCEDURE LAW; ECONOMIC PROCEDURAL LAW; ARBITRATION PROCESS AND MEDIATION

Esanova Zamira Normurodovna

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Mamasidiqov Muzaffar Musajonovich

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Egamberdiyev Eminjon

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Jason A.

Kanton Federal sud markazi (AQSH)

12.00.05 - МЕҲНАТ ҲУҚУҚИ. ИЖТИМОИЙ ТАЪМИНОТ ҲУҚУҚИ / ТРУДОВОЕ ПРАВО; ПРАВО СОЦИАЛЬНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ / THE LABOR LAW; SOCIAL SECURITY LAW

Usmanova Muborak Akmalxanovna

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Gasanov Mixail Yuriyevich

yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Sattorova Gulnoza Djurakulovna

yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Murodova Gulnora

yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Denisov Gleb

yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

Fayziyev Shuxrat Xasanovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Usmonov Muhammadi Bahridinovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Xolmuminov Juma
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Jo'rayev Yuldash Achilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Skripnikov Nikolay Kuzmich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Po'latov Baxtiyor Xalilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Salomov Baxrom Salomovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Salayev Nodirbek Saparbayevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Osmonaliev Qayrat
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Aleksey Kibalnik
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Kudryavtsev Vladislav Leonidovich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Sergey Shoshin
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)
James B.
Eaglin Federal sud markazi (AQSH)

Rustambayev Mirzayusup Hakimovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Zufarov Rustam Axmedovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Kabulov Rustam
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Rajabova Mavjuda Abdullayevna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Taxirov Farxod
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ismailov Isomiddin
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Hamidov Nurmuhammad Orif o'g'li
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (O'zbekiston)
Yuldoshev Rifat Raxmadjonovich
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)
Djansarayeva Rima Ernatovna
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)
Yelena Antonyan Aleksandrovna
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Matthew Light
yuridik fanlar doktori, professor (Kanada)


Inog'omjonova Zumratxon Fatxullayevna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Pulatov Yuriy Safiyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
To'laganova Gulchehra Zaxitovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Muxiddinov Faxriddin Muxiddinovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mirazov Davron Miragzamovich
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)
Rijakov Aleksandr Petrovich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

Stoyko Nikolay Genadyevich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Iskandarov Zayniddin
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)
Sergey Pen
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)
Aleksey Purs
yuridik fanlar doktori, dotsent (Belarus)
Jurgen Maurer
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)
Kevin Curtin
yuridik fanlar doktori, professor (AQSH)

Ismoilov Bahodir Islamovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Matkarimova Gulchehra Abdusamatovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Yuldasheva Govxerjan
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Alexander Trunk
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)


1. Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН КОНСТИТУЦИЯВИЙ ИСЛОҲОТЛАРИНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ: НАЗАРИЙ-ҲУҚУҚИЙ ЖИҲАТЛАРИ.....	5
2. Умаров Бекзод Азаматович ДАВЛАТ БОШҚАРУВИ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШДА НОМАРКАЗЛАШТИРИШ ИСЛОҲОТЛАРИНИНГ ЎРНИ.....	19
3. Абдуллаева Мафтуна Мурот кизи ДАВЛАТ ҲОКИМИЯТИ ТИЗИМИДА КОНСТИТУЦИЯВИЙ СУД: НАЗАРИЯ ВА АМАЛИЁТ.....	26
4. Avezov Umidjon Toshpulatovich JAMOAT BIRLASHMASI SIFATIDA KASABA UYUSHMALARINING HUQUQIY MAQOMI VA YURIDIK TABIATI.....	34
5. Toshmuxammadov Asadbek Yusup o‘g‘li O‘ZBEKISTONDA OMMAVIY TADBIR O‘TKAZISH TARTIBINING HUQUQIY ASOSLARI (QIYOSIY-HUQUQIY TAHLIL).....	43
6. Муракаева Зухра Ильгизаровна СХОДСТВА И РАЗЛИЧИЯ ЗАКОНОДАТЕЛЬНЫХ НОРМ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН И РОССИЙСКОЙ ФЕДЕРАЦИИ В СФЕРЕ ОБЕСПЕЧЕНИЯ АВТОРСКОГО ПРАВА.....	50
7. Джалилов Фуркат Закирович ДАВЛАТ ХИЗМАТЧИСИНИНГ МУЛКИЙ МАНФААТДОРЛИГИ БИЛАН БОҒЛИҚ ЖИНОЯТЛАР ТУШУНЧАСИ.....	58
8. Иброхимов Жамшид Абдуғофур ўғли ЯЛПИ ҚИРҒИН ҚУРОЛЛАРИНИНГ НОҚОНУНИЙ МУОМАЛАСИ БИЛАН БОҒЛИҚ ЖИНОЯТЛАРНИНГ ЮРИДИК ТАҲЛИЛИ ВА ЖАВОБГАРЛИКНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ.....	66
9. Jumanazarova Marjona Botir qizi OXIRGI ZARURAT NAZARDA TUTILGAN NORMALARNING RIVOJLANISH TARIXI VA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JINOYAT KODEKSIGA KIRITILISHINING ZARURATI.....	77
10. Худайкулов Ферузбек Хуррамович ЖИНОЯТ ОБЪЕКТИВ ТОМОНИ ФАКУЛЬТАТИВ БЕЛГИЛАРИ: УЛАРНИНГ УМУМИЙ ТАВСИФИ ВА ЖИНОЯТ-ҲУҚУҚИЙ АҲАМИЯТИ.....	87
11. Хидоятлов Бахтиёр Батирович ЖИНОЯТ ПРОЦЕССИДА ПРОЦЕССУАЛ ШАКЛ: МОҲИЯТИ, ТАВСИФИ ВА АҲАМИЯТИ.....	100
12. Полвонов Нажмиддин Аслидинович ЖИНОЯТ ПРОЦЕССИДА МУСОДАРА ҚИЛИНИШИ МУМКИН БЎЛГАН МУЛК ОБЪЕКТЛАРИ.....	108



Jumanazarova Marjona Botir qizi,
Toshkent davlat yuridik universiteti
mustaqil izlanuvchisi
ORCID: 0000-0001-9413-7777
E-mail: botirqizi@gmail.com

OXIRGI ZARURAT NAZARDA TUTILGAN NORMALARNING RIVOJLANISH TARIXI VA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI JINOYAT KODEKSIGA KIRITILISHINING ZARURATI

For citation: Jumanazarova Marjona Botir kizi. HISTORY OF DEVELOPMENT AND THE NECESSITY INTRODUCING NORMS OF EXTREME NECESSITY INTO THE CRIMINAL CODE OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. Journal of Law Research. 2022, 7 vol., issue 9, pp. 77-86

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.7243301>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holat sifatida oxirgi zaruratning qadimgi Rim huquqida yuzaga kelishidan to hozirgi zamon huquqida o'rin olishiga qadar bir necha bosqichda rivojlanish tarixi tahlil qilingan. Aynan O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqida oxirgi zaruratga oid normalarning zardushtiylik dini amalda bo'lgan davr, islom dini kirib kelishi bilan shariat qoidalari amal qilgan davr, sovet tuzumi hukmronlik qilgan davr hamda mustaqillik davri bosqichlarida rivojlanishidagi o'ziga xosliklar bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan. Maqolada keltirilgan nazariy xulosalarga Ulpian, G. Grotsiy, X. Volf, S. Pufendorf, I.G. Gegel, Edward B. Arnolds, Kalman Gerocz va boshqa bir qancha huquqshunos olimlarning qarashlarini o'rganish orqali kelindi. Uzoq tarixning bir qator davrlarida oxirgi zarurat bo'yicha yuzaga kelgan hamda o'ziga xos rivojlangan mazkur mavzudagi diniy hamda dunyoviy qarashlar chuqur o'rganildi. O'zbekiston Respublikasining oxirgi yuz yillik tarixi davomida qabul qilingan hamda amalda bo'lgan jinoyat kodekslarida so'z yuritilayotgan normalarning o'zaro farqli tomonlari, kamchiliklari hamda yutuqlari tahlil qilindi. O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunidagi tegishli normaning takomillashtirilishi uchun taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: oxirgi zarurat, xavf, zarar, musulmon qonunchiligi, odat, javobgarlikdan ozod qilish, jazodan ozod qilish.

Жуманазарова Маржона Ботир кизи,
Самостоятельный соискатель Ташкентского
государственного юридического университета
ORCID: 0000-0001-9413-7777
E-mail: botirqizi@gmail.com

ИСТОРИЯ РАЗВИТИЯ И НЕОБХОДИМОСТЬ ВНЕСЕНИЕ НОРМ О КРАЙНЕЙ НЕОБХОДИМОСТИ В УГОЛОВНЫЙ КОДЕКС РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется история развития в несколько этапов от возникновения крайней необходимости в древнеримском праве до ее места в современном праве как обстоятельство, исключающее преступность деяния. Проведены исследования особенностей развития норм о крайней необходимости в уголовном праве Республики Узбекистан в период зороастризма, период шариата с приходом ислама, период советской власти и период независимости. Изучив мнения Ульпиана, Г. Гроция, Х. Вольфа, С. Пуфендорфа, И.Г. Гегеля, Эдвард Б. Арнольдса, Калман Героча и многих других ученых-правоведов, были сделаны теоретические выводы, изложенные в статье. Изучены религиозные и светские правила о крайней необходимости, которые складывались и развивались в ряд периодов истории. Анализирован отличия, недостатки и достижения рассматриваемых норм в уголовных кодексах Республики Узбекистан, принятых и действовавших за последние сто лет истории. Разработаны предложения и рекомендации по совершенствованию соответствующих норм уголовного кодекса Республики Узбекистан.

Ключевые слова: крайняя необходимость, опасность, вред, мусульманское право, обычай, освобождение от ответственности, освобождение от наказания.

Jumanazarova Marjona Botir kizi,
An Independent Researcher of Tashkent
State University of Law
ORCID: 0000-0001-9413-7777
E-mail: botirqizi@gmail.com

HISTORY OF DEVELOPMENT AND THE NECESSITY INTRODUCING NORMS OF EXTREME NECESSITY INTO THE CRIMINAL CODE OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

ANNOTATION

This article analyzes the history of development in several stages of extreme necessity from ancient Roman law to its place in modern law as a circumstance excluding the criminality of an act. Studies have been carried out on the features of the development of norms on extreme necessity in the criminal law of the Republic of Uzbekistan during the period of Zoroastrianism, the period of Sharia with the advent of Islam, the period of Soviet power and the period of independence. Having studied the opinions of Ulpian, G. Grotius, X. Volf, S. Pufendorf, I.G. Gegel, Edward B. Arnolds, Kalman Gerocz and many other legal scholars, the theoretical conclusions set out in the article were made. The religious and secular rules of extreme necessity, which were formed and developed in a number of periods of history, were studied. The differences, shortcomings and achievements of the considered norms in the criminal codes of the Republic of Uzbekistan, adopted and in force over the past hundred years of history, are analyzed. Proposals and recommendations have been developed to improve the relevant norms of the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan.

Keywords: extreme necessity, danger, harm, Islamic law, custom, exemption from responsibility, exemption from penalty.

Oxirgi zarurat instituti shu qadar uzoq tarixga egaki, uning rivojlanishi huquqning rivojlanishi bilan bir vaqtda kechgan deyish mumkin. Uning qachon paydo bo'lganini aniq aytish mumkin emas. Biroq bir qancha huquqshunos olimlar o'z izlanishlarida oxirgi zaruratning umumiy huquq ta'siri ostida [1] mahalliy odat va an'analar asosida yaratilganini aytadilar [2]. Ayrim odat normalariga davlat aralashishni zarur deb hisoblamay, ularga rioya qilish yoki qilmaslikni aholining o'zi hal qilishi uchun qoldirib, davlat manfaatlariga dahl qiluvchi odatlarni esa bor kuchi bilan yo'q qilishga harakat

qilgan. Bundan kelib chiqadiki, oxirgi zarurat odat sifatida davlatning aralashuvisiz yuzaga kelib, davlat tomonidan rag'batlantirilishi natijasida qonun normasi sifatida huquq hayotiga kirib keladi.

Biroq huquqning eng qadimgi manbaalari sifatida Qadimgi Rim huquqiy yodgorliklarida oxirgi zarurat holatida sodir etilgan harakatlarning jazolanmasligini ko'rsatib beruvchi normalarning mavjudligi oxirgi zarurat haqida dastlabki qarashlar aynan Qadimgi Rimda shakllangan degan fikrga kelishimizga asos bo'ladi.

Oxirgi zarurat nazarda tutilgan normalarning rivojlanish tarixi masalalari yuzasida milliy jinoyat huquqi doirasida chuqur ilmiy izlanishlar bugungi kunda mavjud bo'lmaganligi hamda mazkur ilmiy maqolada aks ettirilgan fikrlar mavzu yuzasida dastlabki ilmiy qarashlar sifatida o'rin olganini hisobga olib mazkur tadqiqot ishida, asosan, tarixiy hamda qiyosiy-huquqiy tahlil metodidan foydalanildi. Shuningdek, umumlashtirish, induksiya va deduksiya metodlari ham qo'llanildi.

Rim huquqidan o'rin olgan "quod non est licitum in lege, necessitas facit licitum" qoidasiga ko'ra, qonun bilan ruxsat etilmagan narsa zarurat bilan ruxsat etiladi [3]. Qadimgi Rim huquqshunosi Ulpian ediktlarida oxirgi zaruratni ifodalagan quyidagi ko'rsatmalarni uchratish mumkin: "ikki teng bo'lmagan manfaat to'qnashganda, har bir da'vo bartaraf etiladi", "o'zini qutqarish uchun bironing molini dengizga tashlagan kishi hech qanday javobgarlikka tortilmaydi". Sitseron esa, bu borada "Zarurat eng mustahkam narsalarni ham sindiradi yoki zaiflashtiradi, bu kabi sharoitda qilingan qilmish aybning mevasi emas, balki taqdir o'yinidir, shu sababli, bunday harakatda na qasd bor, na huquqqa xiloflik bor" – degan fikrlarini yozib qoldirgan.

Ulpian ba'zi hollarda uchinchi shaxslarga mulkiy zarar yetkazgan huquqbuzarlik hozirda mavjud yoki kelajakda kelib chiqishi mumkin bo'lgan xavf borasidagi qo'rquv hissi tufayli yuzaga kelishi mumkinligini aytib o'tgan bo'lsa, oxirgi zaruratning mavjud bo'lish shartlari haqida ilk fikrlarni ilgari surgan Gay "etarli darajada asosli hamda baquvvat odam boshdan kechirishi mumkin bo'lgan qo'rquv" bo'lishi kerak deb hisoblagan [4].

Biroq ta'kidlab o'tish lozimki, qadimgi Rim huquqida oxirgi zaruratning qonuniy ta'rifi mavjud bo'lmagan. Nomi sanalgan huquqshunoslarning fikrlarida aks etgan oxirgi zarurat tushunchasi faqat mulk huquqini himoya qilish uchungina qo'llanilgan. Sababi, Rim huquqida oxirgi zarurat qoidalari fuqarolik huquqi tarkibida o'rganilgan. "Yong'in sodir bo'lgan vaqtda o'zining mulkini qutqarish uchun o'zganing uyini buzish[5]" o'ziga yetkazilishi mumkin bo'lgan zararni bartaraf etishning oxirgi chorasi sanalib, fuqarolik huquqi bo'yicha ham javobgar hisoblanmagan.

Oxirgi zarurat instituti rivojlanishining ikkinchi tarixiy bosqichi o'rta asr huquqining, shu jumladan kanon huquqi (cherkov huquqi)ning shakllanishi bilan bog'liq. "necesitas non habet legem" ("Zarurat hech qanday qonunni bilmaydi") kabi huquq izlanuvchilari tomonidan ko'plab murojaat etiluvchi Gratianus tamoyili aynan shu kanon huquqi negizida yaratilgan.

Bu davrda oxirgi zarurat instituti rivojlanishining o'ziga xos xususiyati shundaki, asosiy himoya qilinuvchi huquq va manfaatlar ichida birinchi bo'lib inson hayoti, va faqat undan keyin mulkiy huquqlar tan olina boshlangan. Ushbu davrda oxirgi zaruratning rivojlanishini o'rgangan M.G. Nikitenkoning fikricha, oxirgi zarurat holatida mazkur davrda shaxs tomonidan ilgari qabul qilingan har qanday majburiyatlarning buzilishi qonuniy deb tan olingan [2, 86-b]. Aynan shu davrda oxirgi zaruratning bir qator konseptual belgilari shakllangan: xavf darhol yuzaga kelishi lozimligi, vaziyat qutqaruvchining aybi bilan shakllanmagan bo'lishi kerakligi, qutqarish shaxsning burchi ekanligi [6]. Birinchi marta oxirgi zarurat holatida harakat qilib yetkazgan zarari uchun shaxs javobgarlikka tortilmasa-da, ikkinchi marta garchi oxirgi zarurat sharoitida huddi shunday qilmish sodir etgan bo'lsa ham javobgarlik kelib chiqqan. Bizningcha, javobgarlikka tortish masalasidagi bu o'ziga xoslik oxirgi zarurat holatini qasddan yaratilishining oldini olish maqsadidan kelib chiqqan. Shunga o'xshash qoida qadimgi german huquqidan ham kuzatiladi.

Kamroq zarar yetkazish orqali ko'proq ahamiyatli manfaatni saqlab qolish haqida normalar qadimgi german huquqidan ham o'rin olgan, lekin bunday qilmishlarga oxirgi zarurat sifatida qaralmagan. Vestgotlarning qadimiy qonunlarida keltirilgan kambag'al odam ish topa olmaganligi sababli o'zini yoki yaqinlarining ochlikdan qutqarish uchun o'g'irlik sodir qilishi holatida u aybdor deb topilmasligi va faqat uchinchi huddi shunday o'g'irlik uchun jazolanishi haqidagi norma oxirgi zarurat paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lsa-da, bunday norma yaratilishiga german xalqi zimmasiga

o‘zaro yordam va qo‘shnichilik ko‘magi vazifasini yuklovchi umumjahon nemis g‘oyasi bo‘lgan Friedensgenossenschaft sabab bo‘lgan [7].

Insonning tabiiy huquqlari haqidagi nazariy qarashlar rivojlana borgan XVII asrni (Yevropa haqida so‘z bormoqda) oxirgi zaruratga nisbatan insonning ajralmas tabiiy huquqi deb qaralishi bilan kechgan deyish mumkin. Kuchli ehtiyoj yuzaga kelgan vaqtda mulkdan foydalanish bo‘yicha umumiy huquq vujudga keladi, oxirgi zarurat holatida bajariladigan harakatlar inson tabiatining zaifligi bilan oqlanadi degan ta‘limot o‘sha davr olimlari G. Grotsiy, X. Volf, S. Pufendorfnig asarlarida o‘z o‘rnini topgan.

O‘zining “Pufendorf taxtasi” nomi bilan mashhur bo‘lgan misoli orqali tanilgan nemis yuristi S. Pufendorf o‘z asarlarida o‘zini saqlash instinktini eng muhim insoniy instinktlardan biri sifatida ko‘rsatadi. Shu sababdan ham, agar o‘z hayotini saqlab qolish uchun boshqa shaxsni o‘z hayotini saqlab qolish imkoniyatidan mahrum qilish kerak bo‘lsa va shunday qilinsa, bunday harakat hech qanday javobgarlikni keltirib chiqarmasligi to‘g‘risidagi fikrini S. Pufendorf aynan mazkur instinkt bilan bog‘lagan [8].

Tabiat hodisalaridan kelib chiqadigan zarurat holatlarida sodir etilgan qilmishning insonning yashashga bo‘lgan tabiiy huquqi bo‘lganligi uchun jazolanmasligi kerakligi (G. Grotsiy) [9], uchinchi kuchlar ta‘siridan qo‘rqqan shaxs boshqa shaxsning tinchligini buzishga haqli ekanligi (X. Tomazini) haqidagi g‘oyalar ham aynan shu davr huquqshunoslari ilmiy qarashlarida aks etganini ko‘rish mumkin.

Keyingi davrlarda (XVII asr-XIX asr) oxirgi zaruratga nisbatan qarashlar huquq falsafasi negizida rivojlanib, I.G. Fixte, G.V.F. Gegel, I. Kant kabi faylasuflarning asarlarida o‘z aksini topgan.

I.G. Gegelning fikricha, agar shaxsning hayotini boshqa bir shaxsning mulkni o‘g‘irlash orqali saqlab qolish mumkin bo‘lsa (faqatgina xavf real bo‘lsa), bunday holda bu harakat uchun yuridik javobgarlikni o‘rnatish mumkin emas. Bu bilan Gegel nafaqat oxirgi zaruratni qonuniy harakat sifatida e‘tirof etmoqda, balki uning mavjud bo‘lishi uchun xavfning realligi kabi shartni ham ko‘rsatib o‘tmoqda.

I.G. Fixte oxirgi zarurat holatida sodir etilgan harakat qonuniy yoki qonunga zid harakat emas, balki qonunga mutlaqo befarq bo‘lgan harakat sifatida ko‘rsatgan bo‘lsa [6, 128-b], I. Kant oxirgi zaruratni inson qadr-qimmatini ifodalaydigan huquq sifatida ko‘rib, qadr-qimmatni hech bir ekvivalentni tan olmaydigan “so‘zsiz va beqiyos qiymat” deb ataydi [10].

So‘z yuritilayotgan faylasuflarning barchasi oxirgi zaruratni jinoyat huquqining asosiy instituti deb hisoblaganlar va uning huquqdagi o‘rnini shakllantirishga uringanlar. XVIII-XIX asrlarda oxirgi zarurat yuzasidan jinoyat huquqi nazariyasiga katta ta‘sir ko‘rsatgan bir nechta konseptual asoslar shakllandi:

- 1) qonuniy manfaatlar to‘qnashuvida “huquqiy tartib”ning mavjud bo‘lmasligi (Fixte);
- 2) huquqiy ziddiyatda kamroq zarar yetkazishning qonuniyligi (“ehtiyoj huquqi”, Gegel) [11];
- 3) shaxsning o‘zini qutqarish uchun javobgarliksiz o‘zgaga zarar yetkazishi (Kant) [12];
- 4) zarurat bo‘lganda, zarar yetkazuvchining o‘z xohish-irodasini istisno qilgan holda, majburiy zarar yetkazish nazariyasi (Feyerbax).

Bunda dastlabki ikki nazariya oxirgi zaruratning ob‘ektiv tomoniga asoslangan bo‘lsa, qolgan ikkitasi uning sub‘ektiv tomoniga asoslangan.

Shu tariqa bu davrda mazkur institutning o‘ziga xos rivojlanishi kuzatilgan deyish mumkin.

Yuqarida biz nafaqat Yevropada, balki butun dunyoda oxirgi zaruratning huquqning mustaqil instituti sifatida shakllanishi bosqichlari haqida so‘z yuritdik. Biroq bu bosqichlar turli davlatlarda turlicha aks etgan, shu sababli ham hozirgi kunda dunyoda nechta milliy huquq tizimi mavjud bo‘lsa, shuncha oxirgi zarurat normasining bir-birini takrorlamas shakllarini uchratish mumkin.

Aynan O‘zbekiston Respublikasida mazkur normaning shakllanish tarixi haqida so‘z yuritar ekanmiz, boshqa davlatlarda bo‘lgani kabi mamlakatimizning jinoyat qonunchiligida ham oxirgi zaruratga oid qoidalar bosqichma-bosqich shakllanib kelgan deyish mumkin. Umuman mamlakatimizda jinoyat huquqining rivojlanishi to‘rt tarixiy bosqichdan iborat davrga bo‘lib o‘rgansa bo‘ladi:

- 1) zardushtiylik dini amalda bo‘lgan davrda jinoyat huquqining rivojlanishi (miloddan avvalgi ikki minginchi yillar oxiri – milodiy sakkizinchi asr boshi);
- 2) islom dini kirib kelishi bilan shariat qoidalari amal qilgan davrda jinoyat huquqining rivojlanishi (milodiy sakkizinchi asr boshi – o‘n to‘qqizinchi asr oxiri);
- 3) Sovet tuzumi hukmronlik qilgan davrda jinoyat huquqining rivojlanishi (o‘n to‘qqizinchi asr oxiri – 1991 yilgacha bo‘lgan davr);
- 4) Mustaqil O‘zbekiston Respublikasida jinoyat huquqi rivojlanishi (1991 yildan hozirgi kunga qadar).

Dastlabki ikki davr jinoyat huquqining din hukmron bo‘lgan davrlarda o‘ziga xos rivojlanishini o‘z ichiga oladi. Albatta, ularda huquq diniy qoidalardan alohida rivojlana olmagan. Shu bilan birga, odat normalari, zardushtiylik dini muqaddas kitobi “Avesto” va shariyat qoidalari amal qilgan bir necha ming yillarda “qilmishning jinoyatligini istisno qiluvchi holatlar” yoki “oxirgi zarurat” kabi tushunchalar mavjud bo‘lmagan bo‘lsa-da, ularning dastlabki elementlarini uchratish mumkin.

Zardushtiylik dinining asosiy manbasi bo‘lgan, va asosan, odat normalaridan iborat bo‘lgan “Avesto” kitobi bizgacha yetib kelgan bo‘lib, uning to‘rtinchi tarkibiy kitobi bo‘lgan “Vandidad” (“Yovuz ruhlarga qarshi qonunlar majmuasi”) turli sohadagi huquqiy munosabatlarni tartibga solgan qonun normalaridan iborat bo‘lgan. U 22 fargarddan tashkil topgan bo‘lib, har bir fargard bir necha qismlarga bo‘lingan va ularda alohida huquqiy masalalar yoritilgan. “Vandidad”da belgilangan normalarni o‘rganish davomida shuni tushundikki, unda qanday harakatlar jinoyat sanalishi va sanalmasligi, qanday ijtimoiy xavfli xatti-harakatlarga jazo berilmasligi hamda qaysi gunohlar afv etilishi mumkinligi belgilangan bo‘lsa-da, oxirgi zarurat holatida sodir etilgan harakatlarga qanday baho berish masalalari tartibga solinmagan ekan [13].

Keyinchalik, VIII asrda yurtimiz hududlari Arab xalifaligi tasarrufiga o‘tganidan so‘ng, sud-huquq tizimiga shariat normalarining qo‘llanilishi belgilangan. Shariyat keng tushuncha bo‘lib, uning tarkibiga kiruvchi fiqh (musulmon qonunchiligi) jamiyatdagi huquqiy masalalarni tartibga solishda xonliklar davrida asosiy jinoyat huquqining manbaasi bo‘lib xizmat qilgan.

Mamlakatimiz tarixida aynan shu davrga kelib, oxirgi zarurat masalalarini nisbatan tartibga soluvchi normalarni uchratish mumkin.

Arabcha “dorurat” so‘zi tarjimada “zarurat, favqulodda vaziyat, muammo” degan ma‘noni anglatadi [14]. Islom huquqida esa, bu atama yuzaga kelgan muammoni yechishning yagona yo‘li diniy taqiqlarni buzish bo‘lgan holatni anglatadi. Bir so‘z bilan aytganda, nimaiki oddiy holatlarda taqiqlangan bo‘lsa, oxirgi zarurat holatlarida ruhsat etiladi.

Masalan, islom dinida cho‘chqa go‘shni harom ekanligini ko‘pchilik yaxshi biladi. Ammo ba‘zi hollarda, boshqa oziq-ovqat bo‘lmasa, inson hayotini saqlab qolish uchun uni iste‘mol qilish mumkin. Bunga dalil sifatida Qur‘ondan bir oyatni keltirish mumkin: “Albatta, U Zot sizlarga faqat o‘limtikni, qonni, cho‘chqa go‘shini va Allohdan boshqaga atab so‘yilgan narsalarni harom qildi. Kimki maza talab qiluvchi va haddan oshuvchi bo‘lmagan holda majbur bo‘lib qolsa, unga gunoh yo‘q. Albatta, Alloh mag‘firatli, rahimlidir” (Baqara surasi, 173-oyat).

Payg‘ambarimiz (s.a.v.)ning sunnatlarida ham ocharchilik vaqtida harom bo‘lgan ovqatlarni ham yeyish, hayotiga xavf bo‘lgan damlarda iymonga qarshi so‘zlar aytish, erkaklar salomatligi uchun kerakli bo‘lganda ipak kiyim kiyish, oltin taqish, hayotiga xavf tug‘dirsa, suv borligida ham tayammum qilish mumkinligi va hokazolar kelgan [15].

Qur‘ondagi “Alloh sizlarga qiyinchilikni tug‘dirishni istamas” (Moida surasi, 6-oyat) oyatdan ma‘lumki, xavf haqiqatda mavjud holatlarda shaxsga osonlik bo‘lishi uchun islom dinida taqiqlangan narsalar ham ruhsat etiladi.

Shariyatda hukm chiqarishda dastlab Qur‘onga, so‘ng Sunna – hadislarga murojaat qilinadi. Agar ularda yangi vujudga kelgan ijtimoiy munosabat uchun aynan norma belgilanmagan bo‘lsa, qiyos, fatvo, ijmo, ijtihod kabi diniy normalar qo‘llaniladi. Yuqorida biz dalil sifatida keltirgan Qur‘on va Hadislarda keltirilgan oxirgi zarurat huquqini qo‘llashga ruhsat berish ruhida normalar qiyos (taqqoslash (analogiya) vositasi bilan hukmlar chiqarish) [16] orqali islom jinoyat huquqidagi masalalarni hal qilishda dalil vazifasini bajaradi. Bu holat shariyatda ijtimoiy xavfli qilmishlarni

baholashdagi rim huquqidan o‘ziga xos farqi sanaladi. Sababi, bugungi zamonaviy dunyoda amalda bo‘lgan jinoyat huquqining klassik prinsipi “nullum crimen sine lege”ga asosan jinoyat qonunida analogiyaga yo‘l qo‘yilmaydi.

Islom huquqshunoslari yuqorida keltirib o‘tilgan oyat va hadislariga tayanib “Zaruratlar ma’n etilgan narsani muboh qiladi (ya’ni, taqiqlangan narsalarning taqiqi zarurat davom etayotgan muddatda bekor qilinadi)” (Majalla (To‘liq nomi: Majallah el-Ahkam-i-Adilya. Islom huquqining eng katta kodifikatsiya qilingan normalari to‘plami. Hozirda faqat Quvayt va Shimoliy Kiprda amal qilinadi), 21-paragraf), “ehtiyoj ma’lum me’zonlarga muvofiq o‘lchanadi” (Majalla, 22-paragraf) normalarini tasdiqlaganlar va ular asosida qarorlar qabul qilingan.

Mustafo Ahmad Al-Zarqa hamda Imom Abu Hanifa o‘z kitoblarida shariyatning “zarurat haromni joiz qiladi” (“Al-Darurat tubih al-mahzurat”) degan huquqiy qoidasiga murojaat qiladi [17] Imom Abu Hanifa fikricha, agar holat bo‘yicha boshqa yo‘l bo‘lmasa, harakat zarurat ostida qilingan deb topiladi.

Mustafo Ahmad Al-Zarqa esa “hududni” qo‘llashdagi vaziyatlar haqida to‘xtalib, “Favqulodda yoki zarurat holatlari farz amrining (ya’ni, vojib) bajarilishiga to‘sqinlik qilsa, ikkinchisi vaqtincha kechiktirilishi mumkin” [17] degan xulosaga kelgan. Hudud arabcha atama bo‘lib, islomiy jazo qonuni yoki Qur‘on jazolariga ishora qiladi. An‘anaviy islom huquqiy tizimlarida hudud muayyan dalillar va shartlar bajarilganda amalga oshiriladi. Qur‘onda nazarda tutilgan hudud jinoyatlariga o‘g‘irlik, talonchilik, zino va dindan qaytish kiradi [18]. Mustafo Ahmad Al-Zarqa yuqoridagi fikri orqali oxirgi zarurat holatida xatto majburiy buyruqni ham bajarmaslik javobgarlik keltirib chiqarmasligini ta’kidlaydi.

Musulmon huquqi nuqtai nazaridan oxirgi zarurat ruhiy majburlash tushunchasi bilan belgilanib, shaxs xulq-atvor tanlash erkinligini istisno etuvchi vaziyatda zarar keltiradi.

Islom jinoyat qonuniga ko‘ra oxirgi zarurat holatida zarar yetkazishning qonuniylik shartlari quyidagilardir:

- 1) haqiqiy xavfning mavjud bo‘lishi (hayotiga, sog‘lig‘i, shu shaxs yoki boshqa shaxslar mulkiga qaratilgan);
- 2) bunday xavf ob‘ektiv holatlar asosida yuzaga kelgan bo‘lishi (yong‘in, suv toshqini) va shaxsning o‘zi tomonidan qasddan yaratilmaganligi;
- 3) etkazilgan zararining tabiati so‘nggi chora sifatida ko‘rilishi kerak (yuzaga kelgan xavfni bartaraf etishning yagona yo‘li bo‘lishi);
- 4) zararining oldini olish uchun ishlatiladigan vositalar xavfning og‘irligiga mutanosib bo‘lishi kerak [19].

Demak, xulosa qilish mumkinki, shariyat hukmronligi davrida mamlakatimiz hududida oxirgi zarurat instituti mavjud bo‘lgan va o‘ziga xos rivojlangan.

Mamlakatimiz hududida mavjud bo‘lgan Xiva va Qo‘qon honligi hamda Buxoro amirligi chor Rossiyasi tomonidan bosib olingandan so‘ng jinoyat qonunchiligi masalasida bir qancha normativ hujjatlar qabul qilingan bo‘lishiga qaramasdan, qozilik va biylik sudlari tomonidan shariat va odat normalarining qo‘llanilishi davom etgan [20]. Bilamizki, 1924 yilda O‘zbekiston SSR tashkil qilingan. O‘zbekistonda Sho‘ro hukumati o‘rnatilganidan so‘ng O‘zbekiston SSRning 1926 yildagi JK qabul qilingan davrda shariat va odat huquqi asosida ish ko‘ruvchi qozilik va biylik sudlari faoliyati butunlay tugatilgan.

O‘zbekiston SSRning 1926 yildagi birinchi Jinoyat kodeksi qabul qilingan bo‘lib, ungacha 1922-yil 26-mayda qabul qilingan RSFSR Jinoyat kodeksi Turkiston MIK va XKSning maxsus qarori bilan mamlakatimiz hududida ham amal qilgan (1922-yil iyulda TASSRda, 1924-yil fevralidan Buxoro Xalq Sovet Respublikasida, 1924-yil oktyabrdan Xorazm Xalq Sovet Respublikasida amalga kiritilgan).

RSFSRning 1922-yilgi jinoyat kodeksining 20-bandida oxirgi zarurat normasi belgilangan bo‘lib, mazkur badda o‘zining yoki boshqa shaxsning hayoti, sog‘lig‘i yoki boshqa shaxsiy yoki mulkiy manfaatlarini ushbu sharoitda muqarrar bo‘lgan xavfdan boshqa vositalar bilan saqlab qolishning imkoni bo‘lmaganida sodir etilgan jinoyat, agar yetkazilgan zarar oldi olinganidan muhimroq bo‘lmasa, jazoga tortilmasligi mustahkamlangan.

Oxirgi zaruratga oid jinoyat qonuni rivojlanishining keyingi bosqichi 1924-yilda qabul qilingan “SSR Ittifoqi va ittifoqdosh respublikalar jinoyat qonunlari Asoslari” [21]da jamoat manfaatlarini oxirgi zarurat harakati bilan himoya qilishga ruhsat berilgan. Uning 9-moddasida Sovet hokimiyati va inqilobiy tartib uchun oxirgi zarurat vaziyatida harakat qilish haqida so‘z boradi. Keyinchalik, barcha ittifoqdosh respublikalarning yangi qabul qilingan kodekslarida ushbu “Asoslar” ning normalari qayta ishlab chiqilgan.

RSFSRning 1926 yilgi Jinoyat kodeksining 13-moddasi 2-qismiga ko‘ra, ijtimoiy himoya choralari, ushbu vaziyatda muqarrar bo‘lgan xavfni boshqa vositalar bilan bartaraf etish imkoni bo‘lmagan vaziyatda xarakatlar amalga oshirilgan bo‘lsa, agar keltirilgan zarar oldi olinganga qaraganda kamroq ahamiyatga ega bo‘lsa qo‘llanilmaydi [22]. Biroq bu harakatlar mazkur kodeksda ijtimoiy xavfli deb ko‘rsatilgan. Keyinchalik, oxirgi zaruratdagi harakatlarning ijtimoiy xavfli xususiyatiga ishora 1926 yilgi RSFSR JKning 13-moddasidan Butunrossiya Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi va Xalq Komissarlari Kengashining 1927-yil 6 iyundagi qarori bilan chiqarib tashlangan. Bu vaqtda esa, O‘zbekiston SSRning birinchi Jinoyat kodeksi qabul qilingan (1926-yil 16 iyun) va kuchga kirgan edi (1926-yil 1 iyul) [23]. Mazkur Jinoyat kodeksida ham oxirgi zarurat normasi aynan yuqorida keltirilgan RSFSRning kodeksidagi mazmunda bayon qilingan edi.

Shuni ta’kidlash kerakki, O‘zbekiston SSRda 1920-1930 yillarda jamiyatda hokimiyatning ma’muriy-buyruqbozlik tizimining o‘rnatilishi munosabati bilan oxirgi zarurat tushunchasi sezilarli darajada deformatsiyaga uchragan va bu davrda oxirgi zaruratga inson idrokini “yo‘q qiladigan” holat sifatida qaralish bekor bo‘ladi.

1959-yil 21 mayda O‘zbekiston SSR Oliy Soveti O‘zbekiston tarixida ikkinchi Jinoyat kodeksini qabul qilgan va ushbu kodeks 1960-yil 1 yanvardan mamlakatimiz hududida kuchga kirgan. Oxirgi zaruratga oid norma mazkur kodeksning 14-moddasidan o‘rin olgan bo‘lib, bu norma quyidagicha bayon qilingan: “Jinoyat qonunida nazarda tutilgan harakatlarni oxirgi zarurat holatida qilinsa, ya’ni sovet davlati manfaatlariga, jamoat manfaatlariga, shu shaxsning yoki boshqa grajdanlarning shaxsiga yoki huquqlariga qo‘rqinchli bulgan xavfni qaytarish uchun qilingan bo‘lsa, va shu xavfni o‘sha holda boshqa choralar bilan qaytarish mumkin bo‘lmagan bo‘lsa hamda keltirilgan zarar oldi olingan zararga qaraganda kamroq bo‘lsa, jinoyat hisoblanmaydi” [24].

Hozirgi O‘zbekiston hududida amal qilgan RSFSRning 1922 yildagi va O‘zbekiston SSRning 1926 yildagi Jinoyat kodekslari oxirgi zaruratning jinoiy harakat ekanligini istisno etmagan holda mazkur qilmish sodir etilishining huquqiy oqibati bo‘lgan jazoni istisno etishi bilan ajralib turadi. 1959 yildagi Jinoyat kodeksida esa bu holat ijobiy hal qilinib, oxirgi zarurat holati jinoyat emas deb topiladigan bo‘lgan. Shunda ham O‘zbekiston SSRning na 1926 yildagi va na 1959 yildagi Jinoyat kodekslari oxirgi zarurat chegarasidan chetga chiqish masalalariga to‘xtalmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritganidan so‘ng mustaqil O‘zbekiston Respublikasining birinchi JK 1994 yilning 22 sentyabrida qabul qilinishi va uning 1995-yil 1 aprelda kuchga kirishi bilan mamlakatimiz jinoyat qonunchiligida yangi davr boshlandi.

Kodeksning birinchi qabul qilingan shaklida oxirgi zarurat joriy tahrirdagi norma kabi 38-moddadan o‘rin olgan edi hamda 5 qismni o‘z ichiga olgandi. Unda oxirgi zarurat holatiga “Oxirgi zarurat holatida, ya’ni shaxsning yoki boshqa fuqarolarning shaxsiga yoxud huquqlariga, jamiyat yoki davlat manfaatlariga tahdid soluvchi xavfni qaytarish uchun qonun bilan qo‘riqlanadigan huquq va manfaatlariga zarar yetkazgan holda sodir etilgan qilmish, basharti, shu xavfni o‘sha holatda boshqa choralar bilan qaytarishning iloji bo‘lmasa hamda keltirilgan zarar oldi olingan zararga qaraganda kamroq bo‘lsa, jinoyat deb topilmaydi”shaklida ta’rif berilgan hamda qilmish qachon qonuniy deb topilishi, oxirgi zarurat chegarasidan chetga chiqish qachon ro‘y berishi, qilmishning qonuniyligini baholashda nimalarga e’tibor qaratish lozimligini belgilagan normalarni qamrab olgan edi. Bu esa, mamlakatimiz bir necha ming yillar davomida bosib o‘tgan tarixida oxirgi zarurat borasida mustahkamlangan normalarning eng to‘liq shakli desa bo‘ladi.

Jinoyat qonuni qabul qilinganidan to 2018 yilgacha bo‘lgan davr mobaynida jismoniy yoki ruhiy majburlash natijasida huquqlar va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlariga zarar yetkazganlik uchun javobgarlik masalasi oxirgi zarurat qoidalarini hisobga olgan holda hal qilinishi haqida qoida 38-moddadan joy olgandi. Mazkur beshinchi qism O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil

9 yanvardagi O'RQ-459-sonli "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuniga asosan o'z kuchini yo'qotgan va JKga 41¹-modda kiritilib, jismoniy yoki ruhiy majburlash yoxud qo'rqitish alohida qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holat sifatida paydo bo'ldi.

Ushbu o'zgarishni inobatga olmasa, O'zbekiston Respublikasi JKning oxirgi zaruratga bag'ishlangan moddasi 30 yildan ortiq vaqt davomida o'zgartirilmagan, takomillashtirilmagan. Biz fikrimizcha, oxirgi zaruratning joriy versiyasi bugungi kunda takomillashtirishga muhtoj.

Oxirgi zarurat qonunda mavjud bo'lgan ratsionallik g'oyasining huquqiy kafolatidir. Oxirgi zarurat normasini belgilash orqali qonun chiqaruvchi xavf ostida bo'lgan shaxsga xavfga qarshi choralarni tanlash huquqini beradi. Oxirgi zarurat mavjud bo'lgan vaziyatda subyekt umumiy axloq qoidalari va normalariga, shuningdek, "aql-idroki"ga tayanishi mumkin bo'ladi. Unda belgilangan normalar ijtimoiy foydali xulq motivlarini yaratadi. Oxirgi zarurat kishilarning jamiyatdagi xulq-atvorini tartibga solish vositalarini o'z ichiga oladi. Oxirgi zarurat nafaqat jinoyat huquqida, balki huquqning fuqarolik, ma'muriy javobgarlik sohalarida ham o'z aksini topganligi uning sohalararo huquqiy norma sifatida talqin qilishga imkon beradi.

Ilmiy izlanishimiz davomida tahlil qilingan barcha holatlarni umumlashtirib, jinoyat qonunidan o'rin olgan oxirgi zarurat normasining uzoq rivojlanish tarixiga oid quyidagi xulosalarimizni bayon qilsak bo'ladi:

1. Oxirgi zarurat odat sifatida davlatning aralashuvisiz yuzaga kelib, davlat tomonidan rag'batlantirilishi natijasida qonun normasi sifatida huquq hayotiga kirib kelgan.
2. Qadimgi Rim huquqshunoslari Ulpian va Gay oxirgi zaruratni huquqning ajralmas bo'lagi sifatida ko'rishgan, biroq bu davrda oxirgi zarurat fuqarolik huquqining tarkibida o'rganilgan.
3. O'rta asrlarda Yevropada oxirgi zarurat bilan asosiy himoya qilinuvchi huquq va manfaatlar ichida birinchi bo'lib inson hayoti, va faqat undan keyin mulkiy huquqlar tan olina boshlangan bo'lsa, XVII asrda oxirgi zaruratga nisbatan insonning ajralmas tabiiy huquqi deb qarash vujudga kelgan, XVII asr-XIX asrlarda esa, oxirgi zaruratga nisbatan qarashlar huquq falsafasi negizida rivojlanib borgan.
4. Mamlakatimizning qadimiy hududida zardushtiylik dini hukmron bo'lgan davrda oxirgi zarurat tushunchasi mavjud bo'lmagan bo'lsa-da, mamlakatimiz tarixida shariat normalari amal qilgan davrda oxirgi zarurat masalalarini nisbatan tartibga soluvchi normalarni uchratish mumkin.
5. O'zbekiston SSRning 1926 yildagi Jinoyat kodekslari oxirgi zaruratning jinoiy harakat ekanligini istisno etmagan holda mazkur qilmish sodir etilishining huquqiy oqibati bo'lgan jazoni istisno etilgan bo'lsa, 1959 yildagi Jinoyat kodeksida oxirgi zarurat holatida javobgarlik istisno etila boshlangan.
6. Mustaqil O'zbekiston Respublikasining JK 1994 yilda qabul qilinganidan to hozirgi kunga qadar (2018-yil JK 38-moddasining 5-qismi alohida 41¹-modda sifatida ajralib chiqarilishini hisobga olmaganda) oxirgi zaruratni tartibga soluvchi normalar takomillashtirilmagan holda qolmoqda.

Axborotlashgan jamiyatning rivojlanishi bilan oxirgi zaruratni yuzaga keltiruvchi vaziyatlar ham doimiy ko'payib boraveradi, demakki, uni takomillashtirish zarurati jinoyat huquqida dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolaveradi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Edward B. Arnolds, Norman F. Garland, The Defense of Necessity in Criminal Law: The Right to Choose the Lesser Evil, J. Crim. L. & Criminology 289 (1974). Vol. 65, No.3., R.291.
2. Nikitenko M.G. Istoriko-pravovoy analiz razvitiya krayney neobxodimosti kak obstoyatelstva, isklyuchayushchego prestupnost deyaniya. Vestnik Xabarovskogo gosudarstvennogo universiteta ekonomiki i prava. 2021. № 1 (105) S. 84. (Nikitenko M.G. Historical and legal analysis of the development of extreme necessity as a circumstance precluding the criminality of an act. Bulletin of the Khabarovsk State University of Economics and Law. 2021. No. 1 (105) P. 84.)

3. Xvostov V.M. Istoriya rimskogo prava. - M., 1919. – S. 74-75. (Khvostov V.M. History of Roman law. - M., 1919. – P. 74-75.)
4. Pamyatniki rimskogo prava: zakony XII tablits. Institutsii Gaya. Diggesty Yustiniana. M.: Zersalo, 1997. – S. 219-220. (Monuments of Roman law: laws of the XII tables. Guyanese Institutions. Digests of Justinian. M.: Zertsalo, 1997. – P. 219-220.)
5. Kálmán Geröcz: Criminal Exigency. Budapest, Zemplén Nyomda, 1914. 73-74.
6. Ervin Belovics. Proportionality in extreme necessity. Iustum Aequum Salutare X. 2014. 2. R. 127.
7. Antonov V.F. Obstoyatelstva primeneniya instituta krayney neobxodimosti v deyatelnosti pravooxranitelnykh organov. Dissertatsiya ... kan. yur. nauk. – Moskva, 2000. – S. 16. (Antonov V.F. Circumstances of application of the institution of extreme necessity in the activities of law enforcement agencies. Dissertation ... can. legal Sciences. – Moscow, 2000. - P. 16.)
8. Of the Law of Nature and Nations: Eight Books, B. Kennett (trans.), ...Fourth Edition. Done into English by Mr. [George] Carew, Buffalo, NY, Hein, 2005. Available at: <https://plato.stanford.edu/entries/pufendorf-moral/>
9. Viryasova N. V. Istoricheskiy aspekt krayney neobxodimosti // Nauchno-metodicheskiy elektronnyy jurnal «Konsept». – 2016. – T. 41. – S. 39–43. – URL: <http://e-koncept.ru/2016/56915.htm>. (Viryasova N.V. The historical aspect of extreme necessity // Scientific and methodological electronic journal "Concept". - 2016. - T. 41. - P. 39–43.) Available at: <https://e-koncept.ru/2016/56915.htm>.
10. The Cambridge Handbook of Human Dignity Interdisciplinary Perspectives. Cambridge University Press, 2014. pp. 215 - 221
11. Hegel: Base-line of Iurisphilosophy. Budapest, Akadémia Kiadó, 1983. 144-145.
12. Kant: Basics of Morals' Metaphysics (Outlines of Jurisprudence). Budapest, Gondolat, 1991. 33–332.
13. The Zend Avesta: Part I The Vendidad. Translated by James Darmesteter. Oxford At the Clarendon press, 1880. P. 385.
14. Arabic translation available at: <https://www.wordhippo.com/what-is/the/arabic-word-for-a4b7517fba785ebfef29a550c05717965e913b49.html>
15. Alau Adilbayev. V kakix sluchayax haram stanovitsa dozvolennim? (When does haram become permissible?) Available at: <https://kazislam.kz/v-kakih-sluchayah-haram-stanovitsya-dozv/> [accessed 23.11.2021]
16. Z. Muqimov. O'zbekiston davalati va huquqi tarixi. Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. –T.: “Adolat”, 2003. – B. 100. (Z. Muqimov. History of the state and law of Uzbekistan. Textbook for university students. –T.: “Adolat”, 2003. - P. 100.)
17. Kamali, Mohammad Hashi. Crime and Punishment in Islamic Law: A Fresh Interpretation. New York, NY: Oxford University Press, 2019. R. 236.
18. Muhammad bin Ali. Shariah Law and Hudud: Understanding Its Objectives and Spirit. Nanyang Technological university, Singapore. No. 204/2013 dated 1 November 2013. Available at: <https://www.rsis.edu.sg/rsis-publication/rsis/2092-shariah-law-and-hudud-underst/#.YaJidFVBzDd>
19. Medvedev A.A. Obstoyatelstva, isklyuchayushye ugolovnyuyu otvetstvennost v islamskom ugolovnom prave. Voprosy rossiyskoy yustitsii. 2020. № 6. s. 438. (Medvedev A.A. Circumstances excluding criminal liability in Islamic criminal law. Issues of Russian justice. 2020. No. 6. p. 438.)
20. Baxronov X. Mustamlakachilikdan – mustaqillikkacha: O'zbekiston Respublikasi jinoyat-protsessual qonunchiligining rivojlanish tarixi. – T.: «Falsafa va huquq» nashriyoti, 2007. – B. 13-14. (Baxronov X. From colonialism to independence: the history of the development of criminal procedure legislation of the Republic of Uzbekistan. - T .: "Philosophy and Law" Publishing House, 2007. - P. 13-14.)

21. Mirenskiy B.A. Metodologicheskiye osnovy i metody sovershenstvovaniya zakonodatelstva. Nukus: Karakalpakstan, 1990. – s. 23. (Mirensky B.A. Methodological bases and methods of improvement of the legislation. Nukus: Karakalpakstan, 1990. – p. 23.)
22. <https://docs.cntd.ru/document/901757374>
23. Ugolovniy kodeks Uzbekskoy SSR. – Tashkent: Yurid. Izd. NKYu UzSSR, 1926. (Criminal Code of the Uzbekistan SSR. – Tashkent: Jurid. Ed. NKJU of the Uzbek SSR, 1926.)
24. O‘zbekiston SSRning Jinoyat kodeksi. (1971-yil 1 yanvargacha bo‘lgan O‘zgarish va qo‘shimchalar bilan) – Toshkent: O‘zbekiston, 1971. – B. 211. (Criminal Code of the Uzbekistan SSR. (As amended and supplemented before January 1, 1971) – Tashkent: Uzbekistan, 1971. – P. 211.)

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 9 СОН

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 7, НОМЕР 9

JOURNAL OF LAW RESEARCH

VOLUME 7, ISSUE 9

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000